



SURXONDARYO VILOYATI JOY NOMLARINING GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

Termiz davlat pedagogika instituti

tabiiy va aniq fanlar fakulteti

*o'qituvchisi **Djumayeva Mohigul***

Termiz davlat pedagogika instituti

tabiiy va aniq fanlar fakulteti

*talabasi **Qarshiyeva Malika***

Imalika199000@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Surxondaryo viloyati oykonimlari va uning geografik xususiyatlari haqida fikrlar bildirilgan. Shuningdek, viloyatning geografik nomlar ma'lum bir hududning tabiiy, tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy sharoitlari bilan bog'liqligi, joylarni, aholi manzillarini nomlashda hududlarda muayyan geografik andoza va qoliplarga amal qilinishi kuzatiladi. Hududdagi geografik nomlarning shakllanishi tabiiy muhit, tarixiy jarayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bilan uzviy bog'liqligi yoritiladi. Shuningdek, joy nomlarida qo'llaniladigan oykonimik indikatorlar va ularning hududiy xususiyatlari ilmiy asosda izohlanadi.

Kalit so'zlar: oykonim, geografik xususiyat, oykonimik indikator, oykonimlar, gidronomiya, tarix, iqtisodiy sharoit.

Аннотация: В статье рассматриваются ойконимы Сурхандарьинской области и их географические особенности. Также отмечается, что географические названия региона тесно связаны с природными, историческими, социальными и экономическими условиями определённой территории. При наименовании населённых пунктов и местностей наблюдается использование определённых географических моделей и шаблонов, что свидетельствует о формировании устойчивых географических норм.



Ключевые слова: ойконим, географические особенности, ойконимический индикатор, ойконимы, гидронимия, история, экономические условия.

KIRISH

Geografik nomlar har qanday hududning o'ziga xos "tili" hisoblanadi. Surxondaryo viloyatida shakllangan joy nomlari hududning tabiiy sharoiti, relyefi, suv resurslari hamda aholi faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Toponimlar orqali hududning qadimiy tarixi, etnik tarkibi va xo'jalik yuritish an'analari haqida muhim ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.

Istiqlol xalqimizga o'zini anglash baxtini va milliy, madaniy adabiy va diniy qadriyatlarini tiklash, asriy an'analarga qayta jon bag'ishlash imkoniyatini yaratdi. Joy nomlari uzoq tarixiy davrning yodg'orligi bo'lib xalqimiz tarixini, uning etnik tarkibini, shuningdek, aholi manzilgohlarining hududiy xususiyatlarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Geografik joy nomlari (toponimlar)ni o'rganish bugungi kunning eng zaruriy masalalaridan biri hisoblanadi. Sababi, har bir joy nomi shu hududning tabiatini, tarixini, madaniyatini, shu hududda yashovchi xalqlarning urf-odati va an'analari o'zida aks ettiradi. Yurtimizda so'nggi yillarda geografik joy nomlarini o'rganishga katta e'tibor berilmoqda. Hukumatimizning geografik joy nomlarini o'rganishga qaratgan yuksak e'tiborini 2011-yil 12-oktyabrda qabul qilingan «Geografik ob'ektlarning nomlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni[2] va unga muvofiq holda 2012-yil 16-oktyabrda tasdiqlangan geografik ob'ektlarning nomlari sohasidagi ishlarini tartibga solish chora-tadbirlari haqidagi O'zbekiston Respublikai Vazirlar Mahkamasining 295-sonli qarori [3] misolida ko'rib turibmiz.

Oykonimlarning geografik xususiyatlarini tahlil qilishda mashhur o'zbek olimlari –Suyun Koraev, R.Musin, X.,Raxmatullaev, A.G'.G'ulomov, Sh.Sh.Shabduraxmonov, F.A.Abdullaev, Sh.R. Rahmatullaeva, A.P. Xojieva, M.Mirzaeva, X.Xasanova, S.Karaeva, T.Nafasova va boshqalar[1].



MUHOKAMA VA NATIJALAR

Surxondaryo toponimik xavzasini o'z ichiga qamrab oladi, u respublikamizning eng janubiy qismida joylashgan bo'lib, SHarkda Bobotog', SHimolda Bosh Hisor tizmasi, SHimoliy-g'arbda Boysun va Ko'xitang tizmalari, janubda Surxon-SHerabod cho'llari bilan o'rab olingan. Nihoyatda murakkab cho'l, adir, tog', balandtog'ga mansub rel'ef formalari mavjud va quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi: shimol, shark, g'arb tarafda tog'lar bilan bog'liq oronimlar, buloq, soy, daryo, ko'llar bilan bog'lik gidronimlar turkumining keng tarkalishi; markaziy qismida pastak tog'lar, janubda esa cho'l, tekisliklar bilan bog'liq holda shakllangan oronimlarning keng rivojlanishi; ushbu rayonda stratigrafik qatlamning turkiy hamda forsiy uzakdagi ko'rinishlari gegemonlik qilishi; «qurg'on», «obod» ko'shimchali oronimlar arealining mavjudligi «Qumqo'rg'on», «Jarqo'rg'on», «Muzrabod», «SHerobod» va hokazolar[4]. Joy nomlarini geografik tahlil etish ma'lum hududda yashagan aholining shug'ullangan kasb-koriga yoki boshqa bir o'ziga xos jihatlariga ko'ra alohida areallarni ajratishda katta ahamiyatga egadir.

Surxondaryo viloyati joy nomlarining geografik xususiyatlari:

- **Relyef bilan bog'liq toponimlar:** Surxon vohasining o'ziga xos relyef ko'rinishlari — daralar, dovonlar, tepaliklar va tekisliklar joy nomlarida aks etadi (masalan, *Darband, To'palang, Sangardak*).
- **Gidrotoponimlar:** Viloyatdagi joy nomlarining ko'pchiligi suv manbalari (daryo, soy, buloq) bilan bog'liq bo'lib, toponimlarning asosini tashkil etadi (masalan, *Surxondaryo, Sherobod, Sherobod daryosi*).
- **Etnik va hududiy xususiyatlar:** Maqolalarda hudud aholisining etnik tarkibi va joy nomlari orasidagi bog'liqlik ham qayd etilgan, ya'ni turli urug' va qabilalar nomlari bilan atalgan qishloqlar mavjud (masalan, *Qarluq, Qipchoq*).
- **Hududiy taqsimot:** Tog'li tumanlarda (Boysun, Sherobod) relyef xususiyatlari kuchli bo'lsa, tekislik qismlarida suv va etnos bilan bog'liq nomlar ko'proq uchraydi.

Bulardan tashqari geografik nomlarni joyning rel'efi nomlari- oronimlar, suv bilan bog'liq – gidronimlar, el-elatlar bilan bog'liq etnonimlar, kishilar nomi –



patronimlar, -entronimlar, shahar nomi - urbonimlar, o'simlik va hayvon nomlariga qo'yilgan fitonim va zoonimlar, umuman yer ustidagi aholi manzillari, yo'llar, komunikatsiyalar nomlari - oykonimlarga bo'lib o'rganish mavjud. Geografik nomlar xalq tarixi bilan uzviy bog'liq bo'lib ularda joy nomlarini yaratgan kishilarning turmush hayoti, yashash tarzining o'ziga xos xususiyatlari o'z ifodasini topadi[5]. Joy nomlari turli tarixiy hodisalar, xalqlar, migratsiyasi, xalqaro aloqalar shuningdek, til taraqqiyoti bilan bog'liq holda shakl va mazmun jihatidan o'zgarishi mumkin. Joy nomlari o'zining qadimiyligi va turg'unligi bilan ajralib turadi. Surxondaryo viloyatining geografik joy nomlari hali yaxshi o'rganilgan emas. Ma'lumki geografik nomlar ma'lum bir hudud bilan, ushbu hududning tabiiy, tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy sharoitlari bilan bog'liqdir. SHu uchun ularni o'rganishda hududning tabiati, tarixini ham hisobga olish zarur. Zero geografik nomlar uzoq davrlar mahsuli bo'lib, vaqt o'tishi bilan shaklan va mazmunan o'zgarib boradi va bu nomlar elat, qabila, xalqlarning ko'chishi asnosida boshqa joyga o'tib qoladi[6]. Joy nomlari bir necha turlarga bo'linadi. Bular gidronimiya, ya'ni daryolar, ko'llar, dengizlar, soylar, kanallar, qo'ltiqlar, sharsharalar, bo'g'izlar nomlari; oronimiya ya'ni rel'ef shakllari nomlari (tog'lar, cho'qqilar, qirlar, tekisliklar, vodiylar, platolar); oykonimiya (polinimiya, urbanonomiya) ya'ni qishloq va shaharlarning nomlari; mikrotoponimiya ya'ni kichik ob'ektlar nomlari[7].

Hududning rel'efi, tog' jinslarining turlari, iklimi, ichki suvlari, tuproq qoplami, organik dunyosi bilan bog'liq ravishda shakllangan xalq terminlari va joy nomlaridir. Chohak - gips katlamlarining tartibsiz ravishda kalashib yotishini anglatadigan tushuncha. Surxondaryo viloyatlarining tog'li xududlarida yashovchi aholi chohak tosh, —mingchukurl deya ataydi. SHu boisdan Machaydaryo xavzasida Choxaklining g'ori, Chaxokli maydon kabi toponimlar mavjud. Urg'ochitosh - slanets katamlari tezda katkat bo'lib bo'laklarga ajralib ketish xususiyatidan kelib chiqqan xolda Surxondaryo viloyatlarining tog'li xududlarida shu atama tarzida ifoda zgiladigan toponimlar uchraydi. Masalan, Sangardakdaryo havzasidagi (Bog'cha kishlog'i atrofi) kichik soy Urg'ochitoshli nomi bilan yuritiladi. Bayir — Cho'l Bayir - Surxontog'da joylashgan karst massividir. Aslida bayir cho'llarda



shamol tufayli paydo bo'lgan uydim - chuqur joylarga nisbatan aytiladi [8]. Surxantog' kuchli karstlangani uchun CHulbayir nomini olgan). Surxondaryo viloyatining, Bobotog' etagidagi daryo va kishloq Selga nomi bilan agalgan. Kuklam yoki kuz faellari keladigan soylik va shuningdek, daryo ogzida sel olib kelgan loyka kumlardan iborat unumdor yerlar «selga» yoki «selga yerlari» deb ataladi. Selga, tugrirok shakli selgox-«sel» va tojikcha xarakat joyi affiksi «goh» kushimchasidan tarkib topgan [9]. Bunday unumdor yerlar aslida sobik selxonaning kosa kismidir. Uning tagiga tuplangan loyqa yillar davomida kalinlashib, unumdor tuprokni tashkil etadi. Selxonalar gidrotexnik inshootlar, sel kuchiga uzoq bardosh bera olmaganligi uchun, muvaqqat suv tuplanadigan hududlar kuruqlikka aylanib, selxonalarning nomigina saklanib qolish xolati ko'p uchraydi.

Surxondaryo hududida ko'mir, neft, gaz, kimmatbaxo, yarim kimmatbaxo toshlar, kimyoviy xom ashyolar, qurilish materiallari, gidro-mineral yer osti boyliklari kabi konlar mavjudligini anglatib turuvchi toponimik atamalar mavjud. Ular kadimgi davrlarda, ya'ni geologik kidiruv ishlari olib borilmasdan oldingi davrlarda xam joylashgan urnining tabiiy geografik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda shakllangan bo'lib, yoki mahalliy aholining olib borgan mashg'ulotiga ko'ra, aynan o'sha toponim joylashgan nuqtada qazilma boyliklar turi mavjudligi xususida axborot berib turadi. Qazilma boyliklarning o'ziga xos indikator — ko'rsatkichi sifatida ishtirok etadi.

Jermoy kishlog'i - Surxondaryo viloyatining janubiy qismida joylashgan bo'lib, bu yerda neft mavjudligidan dalolat berib turadi. Yer mahalliy aholi leksikasida jer tarzida ifodalanib, yerda moy, ya'ni neft mavjud ekanligini kursatmokda, Viloyat toponimlari quyidagicha tasnifladim:

1. Etnooykonimlar. Bunday oykonimlar turli xil xalqlarning, urug'-aymoqlar nomlaridan kelib chiqadi. Aytish joizki, viloyat toponimlarning asosiy qismini aynan etnotoponimlar tashkil etadi. Ular quyidagilardir: Nayman, Uyg'ur, Do'rmon, Ming, Qo'ng'iro't, Kurlaut, Qiyot, Burqut, Yobg'u, Qipchoq, SHunqor, Mo'g'o'l.



2. Hidrooykonimlar – aholi yashaydigan joy nomlari tarkibida suv bilan bog'liq terminlar qatnashadi. Viloyat hududida quyidagi gidrooykonimlar uchraydi: Jo'yiadoq, Rabot, Korez, Dahana, Ko'lixatib, Katta Oqrabot.

3. Din va diniy shaxslarga bilan bog'liq oykonimlar: Eshonlar, Maxsumlar, Xo'jalar, Yangimachit, Baxshiyon, SHexon, Xo'japorso, Rabotishex.

4. Obe'ktning geografik o'rni va o'sha joyning xususiyatini bildiruvchi oykonimlar: Teshiktepa, Teraklik, Panob, SHo'robod, CHorbog', Rabot, Sariosiyo, Bodomcha, CHuqurko'cha, CHorbog'.

5. Aholi punktlarini dastlabki tipini bildiruvchi oykonimlar: Yangirabot, Yangihayot, Yangiobod.

6. Tarkibida rang – tus bildiruvchi qo'shimchali oykonimlar: Ko'kdala 7. Kasb-hunariga qarab nom berilgan oykonimlar: Temichi, Novvoy, CHitgaron, Buyrabof, Dukchilar, Sartaroshlar, Toqido'z, Halvogaron, Arobachi, Qamchinbof, Charmgaron, Qassobon.

XULOSA

Toponimlarni tahlil qilishda funksional-stilistik, ruhiy-psixologik yondoshuvlardan foydalanish oykonimlarning yangi informatsion tomonini ochish imkonini berdi. Bu masala oykonimlarning hosil bo'lish mexanizmining umumiy nazariyasini ishlab chiqish, oikonimlarni denotatlar bo'yicha tasniflash tamoyillarini ishlab chiqish, tipik topografik asoslar va oykonim yasash modellarini o'rnatishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Begmatov E., Uluqov N. O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati. – Namangan, 2006. – B.69.

2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. «Geografik ob'ektlarning nomlari to'g'risida».2011 yil 12 oktyabr

3. O'zbekiston Respublikai Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 16 oktyabrda —Geografik ob'ektlarning nomlari sohasidagi ishlarini tartibga solish chora-tadbirlari haqidal 295-son qarori.



4. Uluqov N. O'zbek tili gidronimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi: Filol. fan. d-ri. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2010 – B. 204.
5. Xromov A.L. Ocherki po toponimii i mikrotoponimii Tadjikistana. – Dushanbe: Irfon, 1975. – B. 3-4, 9.
6. Oxunov N., Ahmadaliev Yu. Farg'ona viloyati oykonimlarining nomlanish xususiyatlari. – Farg'ona, 2010. – B. 29.
7. Rajabov O'. Toponimik indikatorlarning funktsional-semantik xususiyatlari: filol. fan. nomzodi... dis. avtoref. – Toshkent, 2009. – B. 24.
8. Qodirov A.A. Toponomika va geografik atamashunoslik. (ma'ruzalar matni). Buxoro, 2004. -76 b.
9. Qoraev Suyun. O'zbekiston viloyatlari toponimlari. —O'zbekiston milliy entsiklopediyasil. Toshkent. —Davlatl, 2005 y.- 237 b.